

KUSHONLAR SALTANATINING TASHKIL TOPISHI VA AYRITOM,ZARTEPA VA OQQORĞON YODGORLIKARI TARIXI

Xudoyberganov Sabriddin Sirojiddin ögli

Qobilov Samandar Rahmon ögli

Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharqdagi eng qadimgi davlatlardan biri va Òrta Osiyo xalqlari tarixida òchmas iz qoldirgan Kushonlar sultanati(podsholigi)ning tashkil topishi haqida söz yuritiladi.Keyin bizga òsha davr muhitini özida aks etiruvchi,shu davrda barpo etilgan yodgorliklar tarixi haqida qisqacha munozara qilinadi.

Kalit sózlar: Yuechji, Guyshuan, Kudzula Kadfiz,Vima Kadfiz,Kanishka, geografik joylashuv,, Oqqorğon, Zartepa, Ayrитom yodgorliklari,ibodotxonalar, din,moddiy, yozma manbalar, va tadqiqotlar

Kirish:

Kushonlar sultanatining tarixi faqatgina bir mamlakat yoki xalqning tarixi bòlmay,balki butun dunyo tarixining ajralmas bir qismidir.Uning madaniyati jahon madaniyatining shakllanishiga katta hissa qóshib,insoniyat tarixida òchmas iz qoldirdi.Aynisa,Kushonlar davri Òrta Osiyo,Afghaniston,Pokiston va Hindiston xalqlari tarixida òziga xos bòlgan madaniyatni shakllantirdi.Ma'lumki,mil.avv.140-130-yillarda Yunon-Baqtriya podsholigi kòchmanchi sak qabilalarining Baqtriyaga qilgan harbiy yurishlari natijasida qattiq larzaga keldi.Sak qabilasi sharqdan kòchmanchi „Katta yuechji” qabilalaridan mağlubiyatga uchraydi,shundan sòng ularning ta'qibi ostida Baqtriya tomon siljigan edilar.Öz navbatida, „Katta yuechjilar”qabilasi avval kòchmanchi xunlar qabilasi,sòngra usunlar bilan bòlgan janglarda mağlubiyatga uchragandan sóng ular ûarbga-sak qabilasi yashab turgan joyga chekinishga majbur bòladi.Strabon bergen ma'lumotga kòra,Baqtriyani pasianlar,toxarlar,sakaravllar bosib olgan desa,Pompey Trog ma'lumotiga kòra,Baqtriyani skiflarning sarauk va assian qabilalari bosib olgan degan ma'lumotlari uchraydi.Qadimgi Xitoy manbalarida Baqtriyani istilo etgan sifatida dastlabki vatani Markaziy Osiyoning shimoliy qismida(Çarbiy Xitoy)hududi bòlgan yuechji qabilalari kòrsatiladi.Mil.avv.172-161-yillarda xunlar bosqinidan keyin yuechjilar Órta Osiyoning shimoli-sharqiga kòchib òtishadi.Chjan Syan bergen ma'lumotlar kòra xunlar Órta Osiyo hududida yuechjilarni qayta tor-mor keltirgach,yuechjilar janubga borib,Daxya(Baqtriyani)ni bosib olishadi.Mil.avv.140-



130-yillar atrofida Yunon-Baqtriya davlati hududlarini bosib oladi.Kòchmanchilar Baqtriya shahar va qishloqariga ôt qoyishdilar,mahalliy aholining butun boyliklarini taladilar.Yozma manbalarga qaraganda „Katta yuechji" qabilasi Yunon-Baqtriya davlati ustidan  alaba qozongandan sóng Amudaryoning òng sohiliga (Sh.Baqtriya)joylashadi va beshta ölkaga-Xumi,Shuanmi,Xise Dumi va Guyshuanga b linadi.Kòchmanchi qabilalar Baqtrianing boy an'analarini,taraqqiy etgan davlat tuzumi va yuqori rivojlangan madaniyatining shohidi b ldilar.Shuning uchun ular baqtriyaliklarning yutuqlarini özlashtirishga kirishdilar.Guyshuan xonardonidan b lgan Kudzula Kadfiz qolgan 4 ta yuechji qabilalari hududini bosib oladi va Kushon davlatiga asos soladi.Kudzula Kadfiz yuechji qabilalarini öz qoli ostida birlashtirgandan song, sha davrning kuchli sultanatlaridan biri hisoblangan Parfiya bilan urush boshladi va undan Qobul (Gaofu)ni tortib oldi.Tezda keyin Aroxosiya(Pudu) va Kashmirni ham bosib oldi,shunday qilib kushonlar sultanatiga asos soldi.Kudzula Kadfiz 80 yil umr k rgan,ammo bizga uning nechanchi yillar hukmronligi ma'lum emas.Kudzula Kadfiz vafotidan keyin taxtga uning ögli Vima Kadfiz ótirdi.U taxminan 30 yil shohlik qiladi va otasi siyosatini davom ettirib,salatanatga Hindistonning shimoli- arbiy qismini q shib oladi.Bu shoh davlatning iqtisodiy hayotini yanada mustahkamlash niyatida sultanatda pul islohotini ötkazdi.Islohotga binoan mamlakatda mis tangalardan tashqari oltin tangalar ham muomalaga kiritildi.Vima Kadfiz davrida kushonlar sultanatining poytaxti hozirgi Peshavor(Pokiston) yaqinida b lgan.Vima Kadfiz vafotidan keyin taxtga uning ögli Kanishka egalladi.Kanishka davrida budda dini davlat dini deb e'lon qilinadi.U budparastlarning birinchi homiysiga aylanadi.Uning davrida juda k p budda yodgorliklari qurildi.Katta ahamiyatga molik b lgan tadbirdardan yana biri sultanat hududida baqtr tili rolining oshishi b ldi.Kanishka tomonidan zarb qilingan tangalarda yunon tilida yozilgan sózlar órniga baqtr tilida yozilgan sózlarning paydo b lishi bejiz emas.Yozma manbalarga qaraganda Kanishka 23 yil shohlik qilgan.Uning vafotidan keyin taxtni Xuvishka egallaydi.Qadimgi Baqtriya hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga qaraganda,bu yerda kushonlar davriga oid k plab shahar va qishloqlarni xarobalari saqlanib qolgan.Ayniqsa,Shimoliy Baqtriyadagi Xolchayon,Dalvarzintepa,Zartepa,Yavon,qadimgi Termiz va uning yaqinidagi Qoratepa,Fayoztepa,Ayritom ótkazilayotgan qazish ishlarining natijalari diqqatga sazovordir.Bu qazish ishlari til,iqtisodiy va maishiy turmush madaniyati,diniy tasavvurlari t  risida ma'lumotlar olish maqsadida olib borilmoqda.Kushon sózi ilmda  lka nomi,qavm nomi yoki ism nomi sifatida tushuniladi.Xitoy yozma manbalari ma'lumotlar bu sózni qabila nomi sifatida emas,balki muayyan  lka nomi-Guyshuan va ism-Kushon sifatida tushunishga



imkon beradi.Etnik jihatdan ular yuechji-toxarlarga mansub bòlib,bu Xitoy imperatorlari saroyi(yuechjilar bilan boshqalarga kòra yaxshiroq tanish bòlgan)ularning oldingi nomini-Katta yuechjilar davlati nomini saqlab qolganidan kòrinib turibdi.Shunga qaramay,qòshni xalqlar ularni kushonlar deb ataydi.

Ayritom-Termiz shahridan 18km sharqda,jòshqin Amudaryo bòyida joylashgan.Ayritom kushonlar davriga oid óziga yodgorlikdir,ya'ni bu yerdagi imorotlar tarqoq holda joylashgan.Hozir yodgorlikning ancha qismini Amudaryo suvlari yuvib ketgan.Bu yodgorlik tasodifan holatda topilgan.1932-yilning kuz oyida chegarachilar katerda suzib ketayotib,daryo tagida yotgan qandaydir katta bir tosh bòlagiga kòzlari tushib qoladi.Toshda odamlar tasvirlagan edi.Ular bu toshni daryo tagidan kòtarib olib, Toshkentga,olimlarga xabar beradi.Tezda Termizga bir guruh olimlar yetib keladi.Ular orasida M.E.Masson ham bor edi.U mazkur toshda tasvirlangan rasmlarni sinchiklab òrganib,uni kushonlar davriga oid ekanligini aniqladi.1933-yilning kuzida Ayritomni òrganishga maxsus ekspeditsiya uyuşhtiriladi.

Zartepa-Angor tumanida joylashgan bu kòhna shahar tòğri tórburchak shaklda bòlib,uning tomonlari 400 metr.ya'ni 16 hektar maydonni egallaydi.Qazish ishlari shahar markazidagi ma'muriy binoning xarobalarida 1972-yildan beri davom etayapti.Bu yerda hozir öndan ortiq xonalar ochilgan.Ochilgan xonalardan biri ózining kattaligi bilan ajralib turadi.Uning bòyi 17.8 metr ,eni esa 9.2 metr.Devorlari paxsadan bòlgan xonalar qalin loy suvoq qilingan.Xonaning shipini 12ta ustun kòtarib turibdi.Zartepa aholisi budda diniga siğingan.Zartepadan 200 metr sharqda stupa joylashgan va ikki metr balandlikgacha saqlanib qoltingan.Uning asosi tórburchak shaklida bòlib,tòrt burchak ëishlardan qurilgan ekan.

Sònngi yillarda Shimoliy Baqtriyadaning kushonlar davridagi qishloq aholisi madaniyatini,ularning diniy tasavvurlari,e'tiqodlari,maishiy hayotlari va mashğulotlarini òrganishga ham katta e'tibor berilmoqda.Sherobod shahri yaqnidagi Oqqorğon yodgorligida olib borilgan qazish ishlari bu fikrni tasdiqlaydi.Oqqorğon-Sherobod shahri yaqnidagi joylashgan yodgorlik hisoblanadi.Oqqorğon umumiy maydoni 0.8 gekrarga yaqin bòlib,balandligi 2-3 metr atrofida.Hozir yodgorlikning yuqori qatlami qariyb butun maydonda ochib òrganildi.Tekshirishlardan bu yerda qadimgi uylarning qoldiqlari borligi aniqlandi.Uylarning devorlari asosan paxsa va xom ëishtdan qurilgan bòlib,hozir bu devorlar 25-30 sm balandlikda saqlanib qolgan,xolos.Oqqorğonda hammasi bòlib 5 ta katta uyning xarobasi ochildi.Har bir uyda bitta katta patriarchal oila yashagan.Qazish davomida bu yerdan sopol idishlar,tangalar,haykalchalar,taqinchoqlar,uy-ròzgòr buyumlari topilgan.Oqqorğon



topilmalari orasida tangalar alohida òrin tutgan.Bu yerda faqatgina yuqori qatlamning özidan 150 dan ortiq mis tanga topilgan.Ular Kudzula Kadfiz,Vima Kadfiz va Vasudeva davrida zarb qilingan hisoblanadi.

Kushonlar davridagi Shimoliy Baqtriyadaning eng katta ibodatxonasi Qadimiy Termiz shahri yaqinida bòlgan.Bu ibodatxonaga òsha zamondagi kòpchilik shahar va qishloqlardan butparastlar kelib safda qilganlar.Garchi har bir shaharda butparastlarning alohida ibodatxonaları bòlsa-da,markaziy ibodatxonada toat-ibodat mahalliy ibodatxonalaridan boshqacha ǵayritabiiy ruhda bòlgan.Buning ustiga markaziy ibodatxona kohinlari budda aqidalarini juda yaxshi bilganlar.Shu bilan Termizdag'i ibodatxona qoshida budda dinining voizlari tahsil olishgan.Ular bu yerda Buddha ta'limotini mukammal òrgangan.Termiz ibodatxonalarining biri hozir Qoratepa nomi bilan boǵlıq.Qoratepada arxeolog B..Ya.Stavitskiy rahbarligida tadqiqotlar olib borilgan.U yerda 10 dan ortiq xonalar ochib òrganilgan.Yozma manbalardan ma'lumki,Termizdan Dxarmamitra ismli mashxur kohin yetishib chiqqan.Ikkinchı bir tarğibotchi Gxoshaka hisoblanadi.U Peshavorda buyuk kushon shohi Kanishka uyushitirgan butparastlarning yiğilishida ishtirok etgan.Gxoshaka bilan Baqtriyada buddizmning bir mazhabi-vaybxashiklarning tarqalishi boǵlangan.U bundan tashqari buddizmga baǵishlangan katta bir asarning muallifi ham bòlgan.Bu asar „Abandidxormapitaka” deb atalgan.

Xulosa:Turli xil davrlar mobaynida Órta Osiyo xalqlari chetdan kirib kelgan bosqinchilar ta'sirida bòlishadi.Buning natijasida bu yerdag'i aholi öz turmush tarzi va yashash muhitini bir necha bor özgartirishadi.Yuechji qabilalari ham kirib kelishi bilan bu yerdag'i aholining turmush tarziga öz ta'sirlarini ötkaza boshladi.Buning natijasida bu yerda öziga xos bòlgan yangi bir madaniyatni shakllantira boshlaydi.Ana shu davrda iqtisodiy,siyosiy,ijtimoiy va diniy tomonidan özgarishlar yuz beradi.Ayniqsa Shimoliy Hindiston hududidan kirib kelgan buddaviylik dinini ham ta'siri sezilari bòldi.Aholi zardushtiylik bilan birga buddaviylik diniga ham e'tiqod qilisha boshladi.Bu maqolani yozishilishidan ham sabab ósha davrdagi öziga xos bòlgan tarixiy ma'lumotlar,yodgorliklar va xalqlari örtasidagi munosabatlarni yoritib berilishiga harakat qilindi.Milodiy I-III asrlar Kushonlar davri haqida tarixiy kitoblar,tadqiqotlar va yodgorliklar tahlil qilinib chiqildi va barchasi haqqoniy tarzda bayon etildi.Hozirda bu davrga oid yodgorliklarda juda kòp ekspeditsiya va tadqiqotlar olib borilmoqda.Bularning barchasi ósha davr tarixini bizga ochib berish uchun qilinmoqda.Biz bularni vaqtida asrab-avaylab kelajak avlodga meros qilib qoldirishimiz zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Qadimgi Termiz-Shokir Pidayev Toshkent,,Fan" 2011
- 2.Sirli Kushonlar sultanati-Shokir Pidayev Toshkent Özbekiston SSR „Fan"nashriyoti 1990
- 3.Özbek davlatchiligi tarixi 1-jild -E.V.Rtveladze va D.Alimova Toshkent „Akademnashr" 2021
- 4.Özbekiston tarixi 1-kitob -A.S.Sagdullayev Toshkent,Donishmand ziyosi" 2021

